

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATI BADIYYATI

Ibrohimova Mohlaroy Abdubannob qizi

Qo'qon Davlat Universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya . Abdulla Oripov jahon adabiyoti durdona asarlarini o'zbek kitobxonlariga yetkazishda ham samarali mehnat qildi. U Dante «Ilohiy komediya»sining «Do'zax» qismini, A. S. Pushkin, N. A.Nekrasov, T. G. Shevchenko, L. Ukrainka, R. Hamzatov, Q. Quliyev va M. Bayjiyev asarlarini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'z navbatida, uning asarlari ham rus, ingliz, bolgar, turk, ukrain, turkman, ozarbayjon kabi ko'plab xorijiy tillarga tarjima qilingan. 1990 yilda O'zbekiston Oliy Kengashi, 1995 yilda O'zbekiston Oliy Majlisi deputatligiga saylandi. Abdulla Oripov Kaliforniya (AKSh) Fan, ta'lim, sanoat va san'at xalkaro akademiyasining haqiqiy a'zosi. Soka universiteti (Yaponiya) professori. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Bosh tahrir hay'ati a'zosi. Shoir, o'zbek zamonaviy she'riyatining "Navoiy"si Abdulla Oripov xalqimizni dunyo adabiyotining sara namunalari bilan tanishtirish borasida ham talay ishlarni amalga oshirgan. U Dantening "Ilohiy komediya" asarini, L.Ukrainka, T.Shevchenko, N.Nekrasov, Q.Quliev, R.Hamzatov singari shoirlarning she'rlarini mahorat bilan o'zbekchaga o'g'irgan. O'zbekiston Xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabr kuni ertalab AQShning Xyuston shahrida 75 yoshida olamdan o'tdi. 2015-yilda Oripov Italiya yulduzi ordeni bilan taqdirlangan. Ordenni Oripovga Italiya prezidenti Serj Sotarelloning maxsus taklifiga binoan topshirilgan. Ummon bo'yidagi o'ylar – atoqli o'zbek shoiri Abdulla Oripovning 2024-yilda nashr etilgan she'riy to'plami. To'plam shoirning 2015—2016-yillarda AQShning Texas shtatida joylashgan Hyuston shahrida bo'lgan paytida yozgan she'rlaridan tashkil topgan. Umumiy hisobda 5000 nusxada nashrdan chiqqan.

Kalit so'zlar: asar, Abdulla Oripov, she'r, nashr, to'plam, badiiyat, shoir, kitob, chop etish, she'riyat,

Kirish

She'riy to'plam O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi, Qashqadaryo viloyati hokimligi hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti hamkorligida chop etilgan. She'rlarni to'plab, nashrga tayyorlash jarayonlarida shoirning oila a'zolari, jumladan, rafiqasi Xanifa Mustafayeva hamda qizi Mavluda Oripovalar ishtirok etgan.

2024-yilning sentyabr oyida O'zbekiston yozuvchilar uyushmasida bir guruh o'zbek ziyolilari ishtirokida shoirning yangi nashr etilgan „Buyuk soddalik“ hamda „Ummon bo'yidagi o'ylar“ to'plamining taqdimoti o'tkazilgan.

To'plamda 136 ta she'rlar mavjud. Abdulla Oripovning 2015-yil 24-iyuldan 2016-yil 16-oktyabrgacha yozgan she'rlarining barchasi to'plamga kiritilgan.

Abdulla Oripov haqida do'sti: bunday insonlar 500-yilda bir dunyoga keladilar deydi. Mahmud Toir Abdulla Oripov ijodining elparvarlik va fidoiylilik mahsuli ekanligini

uqtirdi. So'ngra Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali direktori, akademik Qalandar Abdurahmonov shoirning Italiya bilan bog'langan ijodiy faoliyati, xususan Dante Aligerining «Ilohiy komediya»sini tarjima qilgani borasida so'zlab, o'zining Abdulla Oripovga ehtirom nuqtai nazaridan «Buyuklar kahkashonida» nomli kitob yaratganini aytib o'tdilar. Shuningdek, Italiya haqida «Go'zal Italiya maftunkor diyor» nomli kitob chop ettirganini aytib har ikkalasini ham namoyish qildilar. Tadbirda shoirning rafiqasi Hanifa opa Abdulla akaning hayotiy kechinmalari va faoliyati borasida to'liqlanib gapirib uning she'rlaridan ayrim namunalarni o'qib berdi. Shuningdek, Amerikada istiqomat qilayotgan shoirning katta qizlari Mavluda Oripova Amerikadan turib otasining umrining oxirgi yillarida 6 oy mobaynida dard bilan olishgani, shunda ham ijoddan to'xtamagani qalam va qog'ozga sadoqati vatanga bo'lgan mehr bilan yo'g'rilganini e'tirof etdi.

Yozuvchining kuyga aylangan "Birinci muhabbatim" she'rini O'zbektonda xizmat ko'rsatgan san'atkor Sherali Jo'rayev kuyladi, shnavanda maqomga egadir:

Kecha oqshom falakda oy bo'zarib botganda,
Zuhra yulduz miltirab, xira xanda otganda,
Ruhimda bir ma'yuslik, sokinlik uyg'otganda,
Men seni esga oldim, birinchi muhabbatim,
Eslab xayolga toldim, birinchi muhabbatim.

Shoirning kechagi kuni oqshomda oy chiqib, Zuhro yulduz (Venera sayyorasi) miltillardi, qadimdan go'zallik, muhabbat va uyg'onish ramzi hisoblanadi. Bu degani hayot qonuniga binoan oyni bo'ri sevishi, shu bilan bir qatorda go'zal hilol ko'rinib tursa shoirga uxlash chinakam uyatligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Kechagi tunning in'ikosi tasviri yoritilib so'ng ma'yuslik, sokinlik ruhida uyg'onib muhabbatini esga oldi. Birinchi muhabbat haroratli, ilk ko'ngilning aldovga ko'nishi, umrida birinchi bor sevgi shahriga ko'ksini bosishi bilan bog'liq jarayonlar. Naqadar go'zal satrlar, davomini tahlil qilamiz. Matlada shoir tunda birinchi muhabbatini eslaganida ishora qilyapti. Oyni bo'zarib boqishi, xira kulgular, ma'yuslik bularning bari unga yoqmagan.

O'tdi yoshlik zavq bilan, gohi to'polon bilan,
Gohida yaxshi bilan, gohida yomon bilan,
Ayro ham tushdim ba'zan qalb bilan imon bilan,
Lekin seni yo'qotdim, birinchi muhabbatim,
Mangu g'aflatga botdim, birinchi muhabbatim.

Yoshlikning zavq, to'palon, yaxshi, yomon bilan o'tib ketganligi --- g'animatligi, Qalb va iymon ayrolashuv konfliktlari, birinchi muhabbatini yo'qotgan va mangu, umr bo'yi g'aflatga botgani haiqda so'z boradi.

Dunyo degan shundayin anglab bo'lmas sir ekan,
Goh keng ekan, gohida tuynuksiz qasr ekan,
Lekin inson hamisha bir hisga asir ekan,
Nechun bilmovdim avval, birinchi muhabbatim,
Parvo qilmovdim avval, birinchi muhabbatim.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Dunyo bu --- tilsimot.Keng ba'zida kirib bo'lmas qasr,bir hisga lekin doim asir ekanligi va avval bilmay,parvo ham qilmay yurgani birinchi muhabbati edi.Loqaydlik,ichki mahzunlik to'la aksini topgan.

Holbuki, orzulardan judo ham bo'lganim yo'q,
Yulduzday kulganim yo'q, oy kabi to'lganim yo'q.
Erta xazon gul kabi sarg'ayib, so'lganim yo'q,
Seni eslab yig'layman, birinchi muhabbatim,
Eslab bag'rim tig'layman, birinchi muhabbatim.

Bir qator tashbehlar bilan badiiy asarga joziba baxsh etdi.

Birinchi muhabbatim takrori orqali muallif emotsional ta'sirni oshirdi va yulduzdek kulmoq,oy kabi to'lish,erta xazon guli kabi sarg'ayish bularning bari she'rni tushunish uchun, o'qig'uchining so'z g'avvosi etib shakllanishida muhim.

Keyingi misralarda bo'lsa yo'lin yo'qotsa, g'ussaga botsa,chorasiz bo'lsa muhabbatga suyanadi.Men kimga suyanay?Eslab yonar...Qaydaligingni ayt,Alisher Navoiyning "Kecha kelgumdur debon..." g'azalida tunlari ko'ziga uyqu kelmay yorning,Tangrining jamolini ko'rishga mushtoqligi aytiladi, nisbatan olib qaralganda ushbu mumtoz durdonasiga nazira,ta'tabbu,sifatida yozilgandek:tunda sirli tushlar ko'rib,bor dunyoni unutgani, qo'l yuvib,xotimada yolg'iz O'lo'oh mening birinchi muhabbatimdir deb yakun yasaydi.

O'zgacha uslubga xos hayratomuz seherga ega ushbu asar Abdulla Oripov merosida katta ahamiyat kasb etadi.Shu bilan birga,ochunning qo'lidagi iltijoli mash'aldir.

Abdulla Oripov Vatan haqida juda ko'p yozdi."O'zbekiston" she'ri,"Men nechun sevaman O'zbekistonni""Alisherning onasi", ko'plab san'at ustalariga bag'ishlovlar yangragan.Uning she'rlarida hayotiy qochirimlar,tarixiy voqealarni yetkazishga harakat qiladi.Sodda, xalqona,milliy va zamonaviy adabiyot qorishmasidan iborat bo'lgan she'rlari estetik didi bo'yicha yuqori saviyaga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

G'azal mulkining sultoni Alisher Navoiyning onasi amirzoda Shayx Abusaid Changning qizi bo'lgan. Tarixiy manbalarda shoirning o'zi onasi haqida juda kam ma'lumot qoldirganligi sababli, uning aniq ismi bizgacha yetib kelmagan. Badiiy adabiyotda, xususan Abdulla Oripovning "Alisherning onasi" she'rida u ulug'vor va donishmand ayol sifatida ulug'lanadi.

Balki uning ko'zlarida
Bo'lgan og'ir bir xayol.
Balki g'amgin bir zotdir u,
Balki sho'xchan bir ayol.

Navoiyning onasini ehtirom bilan tashbehlar orqali tasvirlagan Oripov nima bo'lsa-da,u Navoiyning onasidir deb yakun yasaydi she'rga.Moziy devorlaridagi Alisherning bolalik pallalari-yu, onasining ertaklari so'zlashi, chechaklar terib berishi ko'z oldimizdan o'tadi.

Xalqimizning sevimli va buyuk shoiri bo'lmish A.Oripovning ushbu she'ri tahlili bilan hamtanishsak

.Xastalikka yo‘liqdim Vatanimdan yiroqda,
 Vayron bo‘ldi ming karra shundoq ham vayron ko‘nglim.
 Dengizu tog‘lar osha, goh yayov, goh uchoqda
 Meni ko‘rgani kelding, Bibisora, jon singlim.
 Ushbu satrlardagi bu kki so‘z o‘zaro ma‘no zidligini yuzaga keltirmoqda.
 Abdulla Oripov – turkiy so‘z san‘atkori, o‘zbek she‘riyatining yo‘lchi yulduzi”;
 “Abdulla Oripov ijodi – adabiy sintezning go‘zal namunasi”;
 “Abdulla Oripov – milliy an‘ana va jahon adabiyoti badiiy tafakkurini o‘zida uyg‘unlashtirgan so‘z san‘atkori”.

Bir o‘rinda hatto shoir “she‘riyatimizning simfonik orkestri” deya g‘aroyib, ayni chog‘da, mantiqan juda asos--li tavsiflangan. Kitob mualliflarining e‘tirof etishicha, «Abdulla Oripov ijodida har bir so‘z uzukka qo‘-yilgan ko‘zdek nurlanib, mazmun bilan uyg‘unlik hosil qiladi. Har bir she‘r bir simfoniya, uning o‘z notasi bor». Yana bir o‘rinda Abdulla Oripov ijodiga berilgan quyidagi yana bir ta‘rif diqqatimizni jalb etdi: «Shoir ijodining asosida xudodod iste‘dod, bukilmas metin iroda va jasorat, e‘tiqod, erk va ozodlikka qat‘iy intilish va kurash, millatparvarlik va bag‘rikenglik turadi. Bularning barchasini harakatga keltirguvchi kuch esa ruhiy-ma‘naviy ehtiyoj sanalmish adolat va haqiqatga tashnalik, muhabbatga sadoqat, sobit e‘tiqod hamda yaxshilikni ulug‘lashdir». Bunday teran falsafa bilan sug‘orilgan yuksak baho va xulosalar shunchaki, o‘z-o‘zidan tug‘ilib qolmaydi. Binobarin, “Abdulla Oripov falsafasi” kitobi mualliflari ulug‘ shoir ijodini uzoq vaqt mobaynida va chuqur ilmiy-nazariy asosda o‘rganib kelayotganlarining yaqqol dalolatidir bu. Haqiqatan ham, taniqli olimlar I.G‘aniyev va N.Afo-qova 1984-yildan buyon mutafakkir shoirimizning suhbatlaridan bahramand bo‘lib kelgan. Jumladan, Nodira Afoqova 1995-yilda shoir ijodi bo‘yicha dissertatsiya yoqladi va o‘sha yili uning bir yo‘la ikkita kitobi — “Abdulla Oripov lirikasida badiiy san‘atlar” va “She‘r, hadis, hikmat” asarlari nashr etildi. So‘ngra, 2006-yili olimaning turmush o‘rtog‘i Ilhom G‘aniyev bilan hamkorlikdagi tadqiqotlari mahsuli bo‘lmish “Ozod ruh falsafasi” kitobi dunyo yuzini ko‘rgan. Alisher Navoiy hazratlari Insonga ta‘rif berar ekan, «Haq sirri zotida pinhon» deb qayd etgani bejiz emas. O‘z navbatida, Abdulla Oripov Insonning mohiyatini muxtasar shunday ifodalagan:

Koinot gultoji insondir azal,
 Undadir eng oliy tafakkur, amal.
 Hatto u tubanlik ichra ham tanho,
 Yo falak, ijoding buncha mukammal.
 Tahlil va natijalar

Mualliflar ta‘biri bilan aytganda, Abdulla Oripov ijodida inson obrazining tadrijini tekshirish shoirning nafaqat badiiy-falsafiy qarashlari, balki qalbida kechgan ijodiy evrilishlar kardiogrammasini aniqlashtirish imkonini beradi. Eng muhimi, Abdulla Oripov she‘rlarining mahzanida so‘z sehri va qudratiga cheksiz ishonch o‘z mujassamini topgan. Shoir nazdida samimiy, chin va adolatli so‘z dunyoni o‘zgartirishga, kulfatlarga qalqon bo‘lish va madaniy olamni birlashtirishga qodir. Abdulla akaning she‘riy misralarida bezovta qalb iztirobi, isyon va o‘tli nafasi, to‘lib turgan millat dardi,

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kelajakning goh achchiq sog'inchi zuhur etib turganini ko'ramiz. Binobarin, mavlono Jaloliddin Rumiy lutf etganlaridek, "so'zda ruh bor".

Abdulla Oripovning muhabbat, hijron, ona, bahor haqidagi she'rlaridan tortib, o'z davrida ruhiy tutqunlik — erksizlikka qarshi milliy birlik, kurashga chorlagan isyonkorlik ruhidagi she'rlarigacha, ya'ni xalqimiz ko'pini yod biladigan ana shu nodir nazm javohirlarini I.G'aniyev va N.Afoqova «xalqnoma» degan ibora bilan ifodalar ekan, ushbu she'rlarda juda muhim, takror-tak-ror tilga olingan alohida bir mavzu ham borligiga e'tibor qaratgan.

Abdulla akadan ana shunday ulug'vor, ishonchli va qud-ratli ijod mahsullari xalqimizga, butun insoniyatga ma'naviy meros bo'lib qoldi. Ilhom G'aniyev va Nodira Afoqovanning "Abdulla Orif falsafasi" kitobi – ana shu boy va inja merosni o'rganish yo'lidagi muhim zalvorli qadam, ta'bir joiz bo'lsa, «mahzanida so'z sehri va qudratiga cheksiz ishonch o'z mujassamini topgan» shoir ijodining serqirra, qomusiy talqinidir.

Men-ku bu dunyoda bir zori visol,

Karbalo dashtida Majnun sifatman.

Shamollar ichida men ham bir shamol,

Chechaklar atridan men ham sarmastman.

Lekin sen ruhimning mangu xayoli,

O, yurtim shamoli, yurtim shamoli...

Bu misralar, o'tli so'zlar tarzida shoir yuragidan otilgan bu tuyg'ular o'zbek uchun ham, farangi uchun ham, hindu uchun ham tushunarli va aziz bo'lsa ne'ajab. Ammo ular o'zbek diyoridan, aniqrog'i, Abdulla Oripov uchun muqaddas bo'lgan Qarshi cho'llaridan esgan shamoldan mavj olgan. Shoir o'z yurtiga bo'lgan sog'inchi, mehr-muhabbatini kuylar ekan, beqiyos darajaga ko'tariladi. Umuman, u o'zining nurli ohanglar bilan yo'g'rilgan she'riyatida bugungi voqelikdan, bugungi zamonning fojialar, kulfatlar, noxushliklar bilan to'la pillapoyalaridan yuksalib, jahon klassiklarining kelgusi avlodlar qalbidagi manzilgohiga yo'l topdi. Nurli ohanglar – faqat nekbin g'oyalar va tuyg'ular silsilasi emas. Ba'zan shoir o'z qalbidan yuzib chiqqan mungli hislar sharsharasini tasvir etganida ham kitobxon dili bu musaffo tuyg'ular tug'yonidan xiyla poklanib, mungdan-da nurlangandek bo'ladi. Shoirning "Ishonch ko'priklari" she'rida o'zini qiynagan ma'naviy muammolar teran badiiy talqin etilgan. Bugun ma'lum bo'lishicha, bu she'r kuni kecha faqat ijodkorlar o'rtasida ko'zga tashlangan qusurlarga emas, balki umuman jamiyatimizning ma'naviy tushkunlikka yuz tuta boshlashiga qarshi qaratilgan ekan. She'rdagi har bir satr shu ma'noda kishilarni ogohlikka undovchi, ulug' davlatni olamshumul halokatdan saqlab qolishga da'vat etuvchi ruhiy quvvatga ega ekan.

Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?

Nechun tomoshaga bunchalar o'chsan?

Qarshingda hasratli o'yga tolaman,

Qachon xalq bo'lasan, ey, sen olomon?

Shoir qismati – mushkul qismat. Biroq Vatani asorat ostida, millati asirlikda bo'lgan shoirning taqdiri yuz chandon, ming chandon og'irroqdir. Mazlum yurtning shoiri – faqat shoir emas. U ayni chog'da, ozodlik uchun kurashchi, ma'naviy muallim-murabbiy. A.

Oripovning mustamlaka zulmi avjidaligida cho'lponona jasorat va shijoat bilan bitilgan mazkur satrlari ana shu haqiqatni shoir nechog'lik teran anglaganligini ko'rsatadi. Ko'rsatmaydimi? Faqat shoir bo'lish... Bu hali yetmas – to kishan bor ekan yurt oyog'ida. Xususan, buyuk san'atkor shunchaki oddiy va yakka shaxs emas. U butun elu yurtini, Vatan va millatni o'zida mujassam qiladigan ulkan Shaxsdir. Shuning uchun ham uning og'riqlari adoqsiz, iztiroblari esa cheksizdir. Chinakam shoir shaxsi shunchalar ulug'vorki, u yalpi tutqunlik muhitida ham umumdand keskin ajralib turadi va ozodlikning yakkash oroliday mavjud bo'laveradi. Shoir har qanday sharoitda ham ruhan erkin bo'lgani va o'z ichki erkini hech qachon boy bermagani uchun Ozodlikning ta'mini-lazzatini hammadan ko'ra yaxshiroq biladi. Uning qadriga ko'proq yetadi. Ayni shu bois Ozodlikni hammadan ko'ra Shoir ortiqroq sevadi va istaydi:

“Shoir qalamida hasratlar qat-qat,

Shoirni chulg'aydi o'ylar daf'atan.

Yashab qolarmikan she'rim oqibat?

Ozod bo'larmikan natavon Vatan?..

Bu satrlarda ritorik so'roq gap,tazod qo'llangan.

Abdulla Oripov 60-yillar she'riyatimizda dabdaba va madhiyabozlik rasm bo'lgan, shoir ham, o'quvchi ham shunga ko'nikkan bir paytda “qo'qqisdan yig'lab yuborgan” ijodkor. XX asr o'zbek she'riyatiga birinchilardan bo'lib eng yoqimli, eng xush mungni olib kirgan shoirdir u. Shuning uchun ham o'sha vaqtdagi rasmiy doiralar va hatto adabiy tanqidchiligi jamoatchilik bir qadar taraddudlanib qolganiga qaramay, bu she'riyat ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, hatto sevib qolingani edi:

Qaytgim keldi, onam, yoningga,

Yuragimda ismsiz dardlar.

Sovuq xonam, soat chiq-chiqi,

Tashqarida xazonrez bog'lar,

Yomg'irning jim xonish qilishi...

Barisi ham nechundir bu dam

Tushirmoqda seni yodimga...

Kuz.Hamma narsa onasini yodiga tushirmoqda,yurakda ismsiz --- nomsiz dardlar, yomg'ir tomchilarining bir-biriga urilibmi,yoki yerga tushibmi ovozlari,xona yomg'ir sovug'ida,soat chiqillagan onasini eslatmoqda.Naqadar go'zal tasvir,buyuk tuyg'ular.

Xulosa qilib aytganda,Abdulla Oripov ijodi o'zbek adabiyotining yuksak badiiy-estetik namunalaridan biridir. Shoir asarlarida Vatanga muhabbat, inson qadr-qimmati, milliy g'urur, ezgulik, adolat va ma'naviy kamolot g'oyalari yuksak badiiy mahorat bilan ifodalangan. Uning she'rlari, dostonlari va dramatik asarlarida obrazlilik, ramziy ifoda, falsafiy mushohada hamda badiiy tasvir vositalaridan samarali foydalanilgani ijodining poetik qimmatini yanada oshiradi.Abdulla Oripov o'z asarlari orqali nafaqat milliy adabiyot rivojiga, balki yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasiga ham munosib hissa qo'shgan ijodkordir. Uning asarlarida ilgari surilgan umuminsoniy qadriyatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab kelmoqda.Abdulla Oripov o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti o'rtasidagi badiiy an'analarni uzviy bog'lagan ulkan so'z

san'atkoridir. Uning ijodida Vatan, millat, inson, e'tiqod, tarix va ma'naviyat mavzulari yuksak badiiy mahorat hamda teran falsafiy tafakkur asosida talqin etilgan. Shoir asarlarining badiiy qimmatini obrazlar tizimi, poetik til, ramziy ifoda, badiiy tasvir vositalari va sarmazmun g'oyaviy yo'nalishi bilan belgilanadi. Shu bois Abdulla Oripov ijodi nafaqat adabiy-estetik, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ham egadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Akmal Saidov maqola "Abdulla Oripov.."
2. "Abdulla Oripov ijodiy merosining o'zbek va jahon adabiyiy-estetik tafakkuri taraqqiyotidagi o'rni", Toshkent -2021

